



## O'ZBEK IQTISODIYOTIGA KIRIB KELAYOTGAN NEOLOGIZMLARNING DOLZARBLIGI

**Farxodova Oydinoy**

Samarqand iqtisodiyot va servis institute talabasi

**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

***Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbek milliy iqtisodiyoti lug'atiga kirib kelayotgan yangi terminlar ya'ni neologizmlarning iqtisodiyotimizdagi o'rni va dolzarbligi haqida yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Elektron valyuta, kiber hudud, eksport, import, tashqi qarz, kripto valyuta, innovatsiya, digital moliya, blokchain, investitsiya*

**Kirish:** Kundan-kunga shiddatli ravishda rivojlanayotgan hayotimizda, har bir sohada yangiliklar, innovatsiyalar kirib kelmoqda. Jumladan, iqtisodiy soha ham yangi rivojlanishlar va o'zgarishlar bilan tanishib kelmoqda. Bu o'zgarishlar esa yangi so'zlar va frazalar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Yanada aniqroq qilib aytganda neologizmlar iqtisodiy terminlarimizga kelib qo'shilmogda. Bizning maqsadimiz ham o'zbek iqtisodiy lug'atiga kelib qo'shilgan so'zlarning ifodalarini o'rganish va o'zbek tiliga ta'sirini tahlil qilish, hamda iqtisodiyotimizda bu so'zlarning qanchalik muhim va dolzarbligini o'rganishdan iborat.

**Asosiy qism:** Birinchi navbatda iqtisodiy yoki biznes soha neologizmlari haqida to'xtatilishdan avval neologizm o'zi nima ekanligini bilib olishimiz kerak. Neologizm tizimimizga endi kirib kelgan lekin hali yoyilib ulgurmagan so'zlar hisoblanadi. Iqtisodiy neologizm - bu yangi iqtisodiy tushunchalar va rivojlanish bilan bog'liq yangi so'z yoki ifodalardir. Bu tushunchalar va rivojlanishlar iqtisodiy sohadagi o'zgarishlarni va yangiliklarni ifodalashda foydalaniladi. Neologizmlar yangi so'z va yangi ifodalar bo'lib iqtisodiy jarayonlarni esda qolarli tarzda diqqat markazida saqlab qolish va iqtisod fanining o'quvchilariga osonroq tarzda tushuntirib berish uchun qo'llaniladi. Iqtisodiy sohada yangi kirib kelgan neologizmlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin.

Kripto-valyuta – “Kripto-valyuta” ning asosiy ma'nosi birir davlat yoki markaziy bank tomonidan boshqarilmaydigan va tijoratni tashkil etadigan elektron valyuta bo'ladi.



Digital moliya – elektron platformalar yoki tizimlar orqali muomilada ishlov beriladigan elektron moliyaviy aktivlarni ifodalaydi.

Blokchain – asosan, tijorat yoki boshqa maqsadlar uchun boshqa so‘rovlar yoki o‘zgarishlar qilinishi nazorat qilinadigan elektron jadval sifatida foydalaniladigan tizimni ifodalaydi.

Autsorsing – shartnoma asosida tashqi manbalardan foydalanish

Keshbek – mablag‘larni elektron hamyonlarga qaytarib olish.

Payment – to‘lov.

Klik – to‘lovlarni amalga oshirish.

Balans – miqdoriy muvozanatlashtirish.

Reyting – daraja.

Kredit – banklar tomonidan muayyan mudatga beriladigan sarmoya.

Monitoring – kuzatish, nazorat qilish.

Bundan tashqari iqtisodiy terminologiyamizga

- Kiber hudud

- Elektron valyuta

- Elektron valyuta savdo platformasi

- Tashqi qarzlilar

- Iqtisodiy innovatsiyalar

Kabi so‘zlar kirib kelmoqda. Iqtisodiy neologizmlar vaqt o‘tgan sari xalqimizning ongiga va tiliga moslashib boradi va ular endi o‘zlashtirma so‘zlar misolida lug‘atimizdan joy ola boshlashadi.

Neologizmlarni tushuntirishda filologiya va lingvistik analizlar muhim ro‘l o‘ynaydi. Iqtisodiy terminlarning tuzilishi, ularning ma’nolari va ularni o‘zbek tiliga qanday o‘zgarishlar bilan muofiqlashtirishda fiologik va lingvistik qoidalar foydali bo‘ladi. Iqtisodiy sohadagi neologizmlar uchun muofiqlik ko‘rsatishda ilmiy lug‘atlar va iqtisodiy qo‘llanmalar keng jihatdan yordam beradi.

Neologizmlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish ularni o‘rganuvchilar uchun yaxshi tarzda tushuntirishga yordam beradi. Tarjimonlikda iqtisodiy terminlarni to‘g‘ri tarjima qilish ularning asosiy ma’nolarini saqlab qolishga yordam beradi.

Shunday ekan iqtisodiy neologizmlarning yaralishi va tarqalishi asosan fan texnikaning rivojlanishi bilan bog‘liq. Neologizmlarning to‘g‘ri tarjima qilinishi hamda unga nisbatan qilingan tahlil soda va mazmunli bo‘lishi ushbu so‘zning iqtisodiy terminologiyada o‘z o‘rnini topishiga va xalq orasida ommalashishiga zamin bo‘ladi.



Biz neologizmlarning ustida ish olib borar ekanmiz hech qachon to‘xtab qolmasligimiz zarur. Chunki ular yangilanaveradi,yangilarini esa o‘rganish,tahlil qilish lozim.

**Xulosa:** O‘zbek milliy iqtisodiyotida neologizmlarning o‘rni juda ham katta. Sababi,chetdan kirib kelayotgan investitsyalarni,import-eksportlarni hamda xalqaro tashkilotlar va mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarini chuqurroq o‘rganishda neologizmlar juda ham kerak.

### Foydalanilgan materiallar:

1. Qurbonova M.,Abjalova M.,To‘laboyeva R.,2021. O‘zlashma so‘zlarning urg‘uli lug‘ati 2 jild Toshkent.
2. “Iqtisodiy terminlar” – Abdurohmonov G‘ofurjin, Abdusattorov Farruh, Alimov Kamolidin. 2019.
3. “Filologik LingvistikAsoslar” – Muhammadaliyev Qayumjon, Tursunov Obid.
4. “Iqtisodiy lug‘at” Abdurahmonov G‘, Abduss F., A.K. 2017.
5. Шодиевич, Ш. Х., Эрматов, Н. Ж., Расулова, М. Р., Шодиев, Ж. Х., & Хожаназарова, С. Ж. (2023). MICROSOFT EXCEL ЭЛЕКТРОН ЖАДВАЛИДАН ФОЙДАЛАНИБ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИНИ СТАТИСТИК ҲИСОБЛАШ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 67-75.
6. Yuldasheva, D. (2022). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS'COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH (ON THE EXAMPLE OF TOURISM DIRECTIONS). Science and innovation, 1(B7), 1498-1501.
7. Yuldasheva, D. (2021). PHILOSOPHY OF LIFE-AS A DRIVING FORCE. Theoretical & Applied Science, (6), 633-635.
8. Yuldasheva, D. A. (2021). Some essential trends in teaching second language vocabulary. Academic research in educational sciences, 2(6), 782-786.
9. Yuldasheva, D. (2022). The Intensification Of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).



10. Yuldasheva, D. B. (2021). Approach is the main strategic direction which defines the components of teaching the Uzbek language. *Science and World. International scientific journal*, (2), 90.
11. Dilnoza, Y. (2019). About Conducting Research on the Subject of Ornithological Terms in Uzbek Language. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 7(7), 53-61.
12. Yuldasheva, D. (2022). THE EMERGENCE OF NEW ECONOMIC WORDS AND PHRASES IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE MODERN UZBEK LANGUAGE. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(10)
13. Yuldasheva, D. B. (2023). NAVOIYNING SHE'RIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATIGA DOIR. *Academic research in educational sciences*, 4(Conference Proceedings 1), 174-179.
14. Shodievich, S. H., & Roziqovna, R. M. (2023). OLIY O 'QUV YURTLARIDA MASHG 'ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O 'RNI. *PEDAGOGS jurnali*, 25(1), 52-55.
15. Yuldasheva, D. (2022). FORMATION OF ECONOMIC TERMINOLOGY- THE CURRENT STAGE OF DEVELOPMENT OF THE TERMINOLOGY OF THE UZBEK LANGUAGE. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.6 Philological sciences).
16. Yuldasheva, D., & Karshieva, M. (2022, January). PERTINENT TO THE ROLE OF SCIENTIST WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF THE SUBJECT UZBEK LINGUISTICS. In *Archive of Conferences* (pp. 61-62).
17. Yuldasheva, D. (2020, December). Anthropocentric approach to children's speech study. In *Конференции*.